

KREDIT OPERATSIYALARINI AUDITI, YANGI TEXNOLOGIYALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Tolibova O'g'iloy G'olibovna

O'zbekiston Respublikasi Bank Moliya Akademiyasi talabasi

ogiloytolibova01@gmail.com

+998942293837

Annotasiya. Kredit operatsiyalarining auditi bank va moliyaviy tashkilotlar faoliyatining barqarorligi va ishonchliligini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi. Bugungi kunning moliyaviy muhitida kreditlash faoliyatining o'z vaqtida va sifatli auditi banklar va kredit tashkilotlari uchun muhim xavfsizlik chorasıdir. Ushbu audit jarayonida yangi texnologiyalar va zamonaviy yondashuvlardan foydalanish tashkilotlarning samaradorligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Ushbu tezisda kredit operatsiyalarini auditni, uning yangi texnologiyalar yordamida rivojlanishi va zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: kredit operatsiyalari auditi, sun'iy intellect, blokcheyn texnologiyasi, big data tahlili, riskga asoslangan audit, moliyaviy xavfsizlik

Kredit Operatsiyalarini Auditni: Mohiyati va Ahamiyati

Kredit operatsiyalari auditi bank tomonidan beriladigan kreditlarning to'g'riliqi, qonuniyligi va iqtisodiy asoslanganligini baholash jarayoni hisoblanadi. Kredit operatsiyalari moliyaviy xavf-xatarlarni boshqarishning asosiy vositasi bo'lib, audit bu jarayonning eng muhim qismi hisoblanadi. Audit kredit berish jarayonida moliyaviy risklarni kamaytirishga yordam beradi, kredit qarorlarini qabul qilishda aniq va asosli baholarni beradi hamda bank resurslarining maqsadga muvofiq foydalanilishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda banklarning kredit bo'yicha qaror qabul qilish jarayonlari tobora murakkablashib borayotgani bois, audit bu jarayonlarda nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki samaradorlikni oshirish uchun ham xizmat qiladi. Kredit operatsiyalarini auditni xatolarni aniqlash va ulardan saqlanish, shuningdek, kredit risklarini boshqarish imkonini beradi.

Yangi Texnologiyalar va Auditni Optimallashtirish

Texnologiyalar bank va moliyaviy tizimlarni tubdan o'zgartirib, audit jarayonini ham sezilarli darajada yengillashtirmoqda. Bugungi kunda kredit operatsiyalari auditida foydalaniladigan texnologiyalardan biri sun'iy intellekt (AI) va mashina o'rganish texnologiyalaridir. Sun'iy intellekt kredit oluvchilarning moliyaviy tarixini chuqur o'rganib, kredit riskini tahlil qilish imkonini beradi. Bu nafaqat auditorlar uchun vaqt ni tejaydi, balki kredit baholash jarayonining xolis va aniq bo'lishini

ta'minlaydi. AI texnologiyasi yordamida kredit bo'yicha qabul qilinadigan qarorlar tez va ishonchli amalga oshiriladi. Blokcheyn texnologiyasi kredit operatsiyalarida yanada shaffoflikni ta'minlaydi. Bu texnologiya orqali barcha kredit operatsiyalari tranzaksiyalari kuzatilishi va xavfsiz tarzda saqlanishi mumkin. Blokcheyn texnologiyasi yordamida auditorlar kredit tranzaksiyalarini tekshirishda tranzaksiyalarning to'g'ri va ishonchli ekanligiga ishonch hosil qilishadi, chunki ma'lumotlar tizimda o'zgartirilmaydi.

Big Data texnologiyalari esa katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi. Kredit operatsiyalarini chuqur tahlil qilish, mijozlarning moliyaviy xatti-harakatlarini kuzatish va kredit qarorlarini qabul qilishda katta ma'lumotlar bazasi juda foydali bo'ladi. Katta ma'lumotlar yordamida mijozlar uchun yanada individual va moslashuvchan kredit shartlari ishlab chiqilishi mumkin.

Zamonaviy Yondashuvlar va Metodologiyalar

Audit jarayonini yanada samarali qilish uchun zamonaviy yondashuvlar va metodologiyalar keng qo'llanilmoqda. Ulardan biri riskga asoslangan audit hisoblanadi. Ushbu yondashuv kredit risklarini boshqarish jarayonida risk darajasi yuqori bo'lgan kredit operatsiyalariga ko'proq e'tibor qaratadi. Bunda asosiy maqsad yuqori xavfga ega kreditlar bo'yicha qarorlarni chuqurroq tahlil qilishdir. Shuningdek, integratsiyalashgan audit usuli ham katta ahamiyatga ega bo'lib, bu yondashuv nafaqat kredit operatsiyalarining moliyaviy jihatlarini, balki ularning huquqiy, texnologik va tashkiliy jihatlarini ham baholaydi. Bu yondashuv yordamida tashkilotning barcha bo'limlari birgalikda tahlil qilinadi va kredit operatsiyalari yanada kengroq qamrovli nazoratga olinadi.

Innovatsiyalarni Joriy Etishda Yuzaga Keladigan Qiyinchiliklar. Yangi texnologiyalarni kredit operatsiyalarini auditida qo'llash katta afzalliklarga ega bo'lsada, bu jarayon ba'zi qiyinchiliklarga ham duch kelishi mumkin. Yangi texnologiyalarni joriy qilish uchun katta moliyaviy xarajatlar talab etiladi. Bundan tashqari, kadrlar malakasini oshirish va ularni zamonaviy texnologiyalarga moslashtirish ham dolzarb masala hisoblanadi.

Shuningdek, mijozlarning ma'lumotlari xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlashda bugungi kunda muhim muammolardan biri bo'lib, texnologiyalarni joriy qilishda bu masalani hisobga olish zarur.

Xulosa

Kredit operatsiyalarini audit molivaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yangi texnologiyalar va zamonaviy yondashuvlar audit jarayonini samarali, aniq va xolis qilishga yordam beradi. Texnologiyalar yordamida auditorlar yanada ko'proq vaqtini tejaydi va xatolarni kamaytiradi, bu esa molivaviy tizimlarning yanada barqaror va ishonchli bo'lishiga xizmat qiladi. Shu bois, kredit operatsiyalari auditini zamonaviy texnologiyalar yordamida rivojlantirish kelajakda

bank va moliyaviy sektorning muvaffaqiyatli rivojlanishida katta rol o‘ynashi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.L. YADGAROVA, R.B. QURBONOV “BANK AUDITI” TOSHKENT «IQTISOD-MOLIYA» 2019
2. T.M. KARALIYEV, O.B. SATTAROV, I.F.SAYFIDDINOV “BANK FAOLIYATI TAHLILI” TOSHKENT «Niso poligraf» 2016
3. FATF (2020), Guidance on Digital Identity, FATF, Paris, www.fatfsgafi.org/publications/documents/digital-identity-guidance.htm
4. https://uidai.gov.in/images/commoc/valid_documents_list.pdf.
5. Всемирный банк. 2017 г. «Принципы идентификации в целях устойчивого развития: к эпохе цифровых технологий». Вашингтон, округ Колумбия: Группа Всемирного банка <http://id4d.worldbank.org/principles>. Перечень подписавших организаций приводится на сайте.
6. УВКБ ООН «Руководство по управлению регистрацией и определением идентичности» <https://www.unhcr.org/registrationguidancechapter5/registration/>